

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

*«Dehqonchilik va meliorasiya asoslari» kafedrası
5620800–O'rmonchilik ta'lim yo'nalishi bakalavriat
bitiruvchisi*

MUSAYEV MEXRIDDIN ning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Zarang daraxtining o'rmonchilikdagi o'rni va zarang
plantasiyalarini barpo etish.

Ilmiy rahbar, q.x.f.doktori, professor _____ R.Oripov

*Bitiruv malakaviy ish Dehqonchilik,
va meliorasiya asoslari kafedrası
yig'ilishida muhokama qilindi va
DAK himoyasiga tavsiya etildi.
Kafedra mudiri, professor
_____ K.M.Mo'minov
«___» _____ 2013 yil
Bayonnoma № _____*

*Agronomiya fakulteti
dekani, dosent*

_____ M. A Hayitov.

«___» _____ 2013 y

SAMARQAND-2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
2. ADABIYO TLAR SHARHI	7
3. ISH JOYINING OB-HAVO SHAROITI VA TUPROQ QATLAMI	11
4. O'RMON DARAXTZORLARI KO'CHATLARINI YETISHTIRISH AGROTEKNIKASI	22
4.1 Xo'jalikni joylashishi va maydoni.....	23
4.2 Ko'chatzor uchun yer maydonlarini tayyorlash.....	27
4.3 Zarang daraxtiga dendroflorik tavsif berish.....	30
4.4 Zarang daraxti ko'chatini yetishtirish.....	38
4.5 Tuproqqa ishlov berish.....	41
4.6 Mineral va organik o'g'itlar berish.....	44
4.7 Ko'chatzorda parvarishlash ishlari.....	46
5. IQTISODIY SAMARADORLIGI	48
6. JAXON MOLIVAVIY-IKTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI	49
7. MAMLAKATNI MODERNIZASIYA QILISH, KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA USTIVOR VAZIFALARI	53
8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING 2012 YILDA MAMLAKATIMIZNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI HAMDA 2013 YILGA MO'LJALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG MUHIM USTIVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN VAZIRLAR MAHKAMASINING MAJLISIDAGI MA'RUZASI	55
9. MEXNATNI MUXOFAZA QILISH	60
XULOSALAR	62
FOYDALANILGAN ADABIYO TLAR RO'YXATI	63
ILOVALAR	65

KIRISH

Atrof muhit ekologiyasini doimo yuqori saviyada ushlab turishda, havo haroratini me'yorida bo'lishda uning tarkibini toza tutishda o'rmon daraxtzorlarini o'rni juda kattadir. U hox ignabargli, hox yaproq bargli daraxtzorlar bo'lsin. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimiz o'rmon xo'jaliklarida xalq xo'jaligini yog'och mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda har xil turdagi yaproq bargli daraxtzorlar o'rmonlari barpo etilmoqda. Chunki bugungi dunyo iqtisodida kechayotgan iqtisodiy krizis jarayonida barcha sohalarida kabi o'rmon sohaları ham uning boyliklaridan oqilona foydalanib borishni taqazo etdi. Ayniqsa bugun jahon miqyosida yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ko'pchilikni tashvishga solayotgan bir paytda davlatimiz rahbari I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" (2009) nomli kitobida bu boradagi qator muammolar va ularning yechimlari haqida teran mushohada yuritilgan.

Shuning uchun xalq xo'jaligining yog'och mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 fevralidagi "Mamlakatda terakchilik sanoatini rivojlantirish va uni plantasiyalarini ko'paytirish" bo'yicha 62 sonli qarori ayni muddao bo'ldi.

Chunki barpo etilgan yaproq bargli daraxtlar nafaqat yog'och mahsuloti bilan ta'minlanishi balkim havo tarkibiga zaxarli moddalarni ushlab qoluvchi fitansidlar ajratadi, atrof muxitga mikro iqlim namoyon etadi.

Shuning uchun ham har yili mamlakatimiz o'rmon xo'jaliklarida millionlab dalada har xil turdagi yaproq bargli daraxt turlari yetishtirilmoqda va ular xo'jalik maydonlarida ekib borilmoqda. Ayniqsa bu borada Orol dengizining suvdan bo'shab qolgan minglab gektarlar maydonlarida Markaziy Osiyoda eng katta xalokat o'chog'iga aylangan va aylanib borayotgan tuz ummonini oldini olishda yirik hajmda o'rmon daraxtzorlari barpo etilmoqda. Natijada qum va barxonlarining, yirik maydonlarda sho'rlanishlarning oldi olinmoqda. Biz o'z ishimizda ushbu xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan yog'ochbop daraxt ko'chatlarini yetishtirish vazifasini qo'ydik. Buning uchun biz xo'jalikda ko'chat

yetishtiriladigan yer maydonlarini tayyorlash uchun uning tuprog'iga ishlov berish, ko'chatlar yetishtirish agrotexnikasi va ularga ishlov berish, ko'chatlarni kavlash va saqlash usullari va ko'chatlarga organik va mineral o'g'itlar berish masalalarini o'rganib borishda adabiy manbalarga murojat etdik va ularni tahlil etdik.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 22 noyabr № 25.06 sonli "Respublika o'rmonlarini himoya qilish bo'yicha ayrim me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarorida o'rmonlarda yong'inni oldini olish havfsizligi, o'rmonlarda xo'jasizlarcha foydalanish va o'rmonni parvarish qilish uchun qirquv usulida ishlov berish quyidagilarga e'tibor berilgan. Buning asosiy sababi Respublika aholisini yog'ochga bo'lagan talabini qondirish va ko'plab o'rmon maxsulotini yetishtirishdan iboratdir.

Bugungi kunda Mustaqil O'zbekiston respublikasizning barcha sohalarida o'lgan yutuqlarga erishilmoqda. Biz buni xox va qishloq xalq xo'jaligida, og'ir va yengil sanoatda eng asosiy bug'inlaridan biri bu tirik mavjudot uchun zarur bo'lgan atrof muhit ekologiyasini yaxshilash tomonlariga ham ijobiy o'zgarishlar bo'layotganligini ko'rib bilmoqdamiz. Bunday tabiat bilan chambarchash bog'liq ishlarni suv havzalari resurslari, qishloq xo'jaligi ekinzorlari, aholi yashash hududlari, o'rmon va fermer xo'jaliklari atroflarida va yer maydonlarida barpo etiladigan yaproq va nina bargli daraxtzorlar misolida amalga oshirilmoqda.

Buning uchun bir nechta oliy majlis tomonidan shuningdek O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan qarorlar chiqib keldi. Bular 1994 yilda qabul qilingan respublika Vazirlar mahkamasining "Respublikada sanoat terakchiligini rivojlantirish" buyicha 62-sonli Respublika Oliy kengashining 1999 yilning aprelida navbatdagi sessiyasida "O'rmon tug'risidagi" qonuni va O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining mamlakan hududini ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladigan noyob manzarali daraxt ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha 2007 yil 7-sentyabrda qabul qilingan "Yapon saforasi va Kashtan" daraxtlari ko'chatlarini ekib rivojlantirishdagi 186-sonli qarorlarida mamlakatimizni barcha hududlarini yashil o'simlik dunyosiga burkash bo'yicha

xar-xil bo'yicha yaproq va nina bargli daraxt turlaridan ekib manzarali daraxtzorlar barpo etish masalalari ilgari surilgan.

Mamlakat hududida daraxtzorlar barpo etishdan maqsad nafaqat ekologik jarayoni yaxshilash maqsadida balkim xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan yog'och yetkazib berish, kundalik ehtiyoj mollarini qayta ishlash, chorva ozuqa mahsulotlari olish, urug' to'plash, qalamcha tayyorlash va bir nechta shunday yog'och sozlik yo'nalishlarida to'liq foydalanish kerak bo'ladi. Bunday daraxtlardan va uning yog'ochidan foydalanish uchun avvali shunday daraxtzorlar barpo etishni taqazo etadi. Buning uchun esa shunday daraxt ko'chatlarini yetishtirish kerak bo'ladi.

Bunday ko'chatlar o'rmon xo'jaliklari ko'chatzorlarida, manzarali bog'dorchilik va o'rmonchilik respublika ilmiy markazining tajriba xo'jaliklarida yetishtiriladi va xalq xo'jaligini barcha tarmoqlarida yetkazib beriladi. Shunday noyob yaproq bargli daraxt ko'chatlaridan biri bu Zarang daraxti ko'chatlaridir. Ushbu daraxt ko'chatlarini biz mamlakatimizning deyarli barcha xududlarida ekib ko'paytirishimiz mumkin. Unda aholi turarjoylarini ko'kalamzorlashtirishda, istrohat bog'lari, shifoxonalar va o'quv maskanlari xududlarida ham foydalanishimiz mumkin.

Buning uchun manzarali yaproq va nina bargli ko'chatlar yetishtiradigan xo'jaliklar, maxsus ko'chatxonalar zarur bo'ladi. Hozirgacha bunday ko'chatlarni mavjud o'rmon xo'jaliklaridagi ko'chatxonalarda yetishtirila boshlangan edi. Lekin bir joydan boshqarib turadigan ilmiy markaz mavjud emas edi.

Natijada O'zbekiston O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti o'rnida manzarali bog'dorchilik va o'rmonchilik Respublika ilmiy markazi barpo etildi. Shundan keyin Respublikamizning ko'pgina viloyatlarida manzarali ko'chat yetishtiradigan xo'jaliklar tashkillashtirila boshlandi. Bunday ilhom baxsh tashabbusdan ruhlangan ko'pgina yirik o'rmon xo'jaliklari ishchi-xodimlari ham o'z xo'jaliklari hududida xuddi shunday noyob manzarali ko'chatlar yetishtiradigan ko'chatxonalar tashkillashtira boshladilar.

Ana shunday manzarali yaproq bargli daraxt turlaridan bizga bu Zarang daraxtidir. Lekin bunday ajoyib manzarali ko'chat turini yetishtirishda ilmiy manbalarga asoslangan holda ish olib borish zarur bo'ladi. Chunki har bir manzarali yaproq va nina bargli daraxt va buta ko'chatlarini yetishtirishdan oldin biz uni nima maqsadda ekib ko'paytirayapmiz, bu daraxt atrof muhit ekologiyasida qanday uyg'unlik olib keladi va kasallik, zararkunandalarga qanday bardosh beradi biz buni oldindan bilishimiz zarur bo'ladi. Ana shunday har xil omillarni o'simlik hayot-faoliyatiga ta'siri to'g'risida bir qancha o'rmonshunos olimlar va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

2. ADABIYOTLAR SHARXI

Xalq xo'jaligining barcha sohalarida, mebel sanoatida va qurilishda yog'och va yog'och mahsulotlaridan foydalanishda yog'ochning mexanik va fizik tarkibi uning mebel sanoatida qo'llanish xususiyatlari to'liq o'rganib boriladi. Buning uchun esa tanlangan daraxt to'g'risida mavjud berilgan adabiy manbalarga va ilmiy hisoblar va maqolalarga shuningdek internet ma'lumotlariga murojaat etiladi.

Zarang daraxti ko'chatlarini yetishtirish unga mos yer maydonlarini tanlash haqidagi dolzarb ma'lumotlar S.M.Ablayev., Ya.H.Yuldashovning "Madaniy o'rmonlar" (2008) o'quv darsligida keltiriladi.

Zarang daraxti ko'chatlaridan suv resurslari atrofiga ekib himoya sifatida foydalanish M.M.Qalandarovning "O'rmonchilik" (2008) o'quv qo'llanmasida ma'lumotlar beriladi. Zarang daraxtining vatani uning tarqalish areallari, unga dendrologik tavsif berish A.Qayimovning "Dendrologiya" (2007) o'quv qo'llanmasida bayon etiladi.

Yaproq bargli daraxtlarning gullash va urug'ga kirish davri uning pishib yetilishi va urug'larni terish muddati, urug'ning mevasi haqida zarang daraxti bo'yicha ma'lumotlar A.A.Xonazarovning "O'zbekistonda o'rmonzorlar barpo etish asoslari" (2002) aniq ma'lumotlar bilan qayd etiladi.

V.M. Rovskiyning "Lichniye porodi v Uzbekistane" (1963) qo'llanmasida ushbu tez o'suvchi yog'ochbop daraxt turidan nafaqat daraxtzorlar barpo etishda, balkim xalq xo'jaligi uchun yog'och mahsulotini yetishtirish mumkinligi haqida to'liq ma'lumotlar mavjud.

B.V. Grozdovning "Dendrologiya" (1960) darsligida zarangning vatani, shox-shabbalarining o'sib rivojlanishi, urug'lanish davri, uning pishib yetilishi qanday iqlim sharoitda o'sib rivojlanishi va uning yog'och tarkibi to'g'risida; D.Fuzaylovning "Drevisina Uzbekistana" (1983) qo'llanmasida ushbu yog'ochbop daraxt turining yog'och teksturasi va uning fizik-mexanik tarkibi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilgan.

A.A.Xonazarov., G'.Q. Qumzullayevning "Ihota daraxtzorlari va dehqonchilik" (2002) o'quv qo'llanmasida yog'ochbop zarang daraxtini o'ziga mos holda keladigan daraxt turi bilan ihota daraxtzorlarida joylashtirish, ularni ekish sxemalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

S.Muhammaxonov., F.Jongurazov "O'simlikshunoslikka oid ruscha-o'zbekcha izohli lug'at" (1989) ushbu zarang daraxti to'g'risida umumiy ma'lumotlar mavjud.

S.M.Mirhoshimovning "Ossobennosti zashitnogo lesorazvedeniya na bogare" (1978) ilmiy maqolasida ham ma'lumotlar berilgan.

Zarang daraxti zarangdoshlar oilasiga mansub o'simlikdir. Zarang turkumiga 150 ta tur kiradi, ulardan 474 tasi UzRFA sining Botanika bog'ida o'stiriladi. (A.U.Usmonov, 1974 y). Zarang xamda buta o'simlikdir. Barglari butun, panjasimon bo'lakli yoki murakkab tok patsimon tuzilgan. Doira shaklida joylashadi. Ko'p turlarining guli ayrim jinsli, besh a'zoli tinda. Erkak gullari rudelegiy (kiskarayetgan) tugunchali. Urgochi gullari changdonida spermasiz changchilar bo'ladi yoki bo'lmasligi mumkin. Ba'zi turlari bir uyli, boshkalari ikki uylidir. Gullari shingil yoki tungul hosil qiladi. Mevasi ikkita qanotchali bo'lib, ikkiga ajraladi. Urug'ida endosperma yo'k, urug'chalari ko'pincha yigilgan holda bo'ladi.

Zarangning yog'ochi qalin, pishik, bir tekis rangli bo'ladi. Undan mebel, cholg'u asboblari yasashda samolyotsozlikda foydalaniladi. Ayrim turlaridan shirin ta'mli shira, undan zarang qandi tayyorlanadi. Ko'p turi xushmanzara daraxt sifatida ekiladi. O'rmon meliorasiyasi ishlarida ham muxim o'rinni egallaydi. Ixota o'rmon qatorlariga ekish tavsiya qilinadi.

Manzarali bog'dorchilikda zarangning turlarini ishlatish uchun T.N. Slavkina va O.N. Podolskaya (1987 y) zarangning 7 turlarini tasnifini keltirdilar. (o'tkir bargli zarang, dala zarangi, yavor zarangi soxta chinorli), kumushsimon zarang, tatar zarangi, Ginnai zarangi) N.T.Remiskevich o'zining «Dekorativnoye sadovodstvo i svetovodstvo v Uzbekistane 1963» kitobida zarang turlarining

manzarali xususiyatlarini keltirgan. (4 ta turlarini ta'riflaydi) o'tkir bargli, dala kumushsimon shumtolbarglarni).

Nachalov A.A ning «Derevy a i kustarniki» kitobida zarangning 41 ta turlarini va undan ortik shakllarini xalk xo'jaligida ishlatilishi, biologik, xo'jalik, o'rmon xususiyatlari keltirilgan. Bularning ichida aloxida o'rinni yavor yoki oq zarang, o'tkir bargli zarang, dala zarangi, shakarli zarang, tatar zarangi, kumushsimon zarang, shumtol bargli zaranglar egallagan. Bunda ayrim zarang turlarining fizik xususiyatlari ham keltirilgan.

Masalan: o'tkir bargli zarangning fizikaviy-mexanik xususiyatlari quyidagicha yog'ochning namligi 15% bo'lganda chatishtirma hajm massasi $0,65 \text{ g/sm}^3$ to'qimalari bo'yicha qarshilik ko'rsatishi (vaktinchalik) $5/3 \text{ kg/sm}^2$ qaytirishga qarshiligi 1037 g/sm^2 yog'ochining kesilgan joyi bo'yicha qarshiligi 771 kg/sm^2 (Armanistonda), Ushbu ko'rsatgichlari Ukraina va Belorussiyada: 15% 0,71 540: 1091: 549 kg/sm^2 ; dala zaranggining Ushbu ko'rsatgichlari esa Armanistonda 15% 0,59 376: 681: 478 kg/sm^2 % Ukraina va Uralda – 15 %.

Lesnaya ensiklopediya kitobida keltirilishicha (1 tm, 1985, 425, 427 betlarida) zarang daraxtining areali asosan yer sharining shimoliy Amerikada, g'arbiy Yevropada, sharqi-janubiy Osiyoda va qisman Indoneziyada joylashgan.

MDX davlatlarida esa Yevropa qismida o'tkir bargli zarang, tatar zarangi, soxta kashtanli zarang. Kavkazda o'tkir bargli, soxta kashtanli, tatar zaranglarining areali, Markaziy Osiyoning togli mintakalarida esa Semyonov zarangi tarkalgan. Ushbu kitobda keltirilishicha zarangli sharbatda mineral tuzlar, azotli birikmalar va uglevodlar bordir. Ular zarangning yog'och qismida erta bahorda vegetasiyaning boshlanishida bo'ladi. Shimoliy Amerikada 19 asrning boshlarida zarangdan shakar ola boshlagan. Ularni shakarli va o'tkir bargli zaranglardan olishadi. Zarangning sharbatlarini harakati 25-35 kun davom etadi. Sanoat miqyosidagi sharbatni olish esa 10-25 kun davom etadi.

Muxammadjonov S va F. Jonguzarovning (1989 y) yozishlaricha MDXda zarangning 20 dan ortik turlari o'sadi. Ulardan o'tkir bargli, dala zarangi va tatar zarangi ko'prok ahamiyatlidir, bu turlar ixota o'rmonlar hosil qilish va

ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Shaharlarga asosan Shimoliy Amerikadan keltirilgan shumtol bargli zarang ekiladi.

Rubsov L.N. boshkalarining (1974 y) keltirishicha zarang turkumiga 150 ga yaqin turlari kiradi. MDXning florasida -25, 45 tasi intraduksiyalangan.

A.K.Kayimovning (1993 y) ma'lum qilishicha, O'zbekistonning Mirzachul dashtida zarang daraxti 10 yoshda 15 m ga o'sgan, tanasining diametri 12 sm ga (o'rmon bilan qoplanish darajasi 1,1% bo'lganda). Uning biomassasi (o'rmon bilan qoplanish darajasi 8,6 % bo'lganda) o'rmon bilan qoplanish darajasi 1,1 % bo'lganda esa 86,5 t/ga.

R.Bobrovning (1979 y) ma'lum qilishicha yetishtirilgan har bir kubometr yog'och bu singdirilgan yarim tonna karbonat angidrid va shuncha ishlab chikarilgan kisloroddir. Daraxtlarning shox-shabbasi havoni changdan tozalovchi filtirdir.

Bir kvadrat maydonli barglar yigindisi shumtol bargli zarangning 8,1 grammgacha, bandli eman 8,3 g, shark chinori 10,2 g sug'd shumtoli 11,3 g changni yig'a olishi mumkin ekan. (A.K.Kayimov 1993y).

Bir gektar daraxtzor quyidagi mikdorda changni yigib qolishi tadqiqotlarda aniklangan: zarang daraxti 522, kg, akasiya 683, 6 kg.

3. ISH JOYINING OB-HAVO SHAROITI VA TUPROQ QATLAMI.

Bobotog' etaklari va Sho'rchi tumanlarining hududida iqlim keskin o'zgarib turuvchi harakatga ega bo'lib qish faslida Amudaryo hududidan esib turuvchi sovuq havo oqimi yerda namlik miqdorini saqlanib qolishida katta ta'sir o'tkazadi. Erta bahorda havo harorati keskin ko'tarilib yerdagi namlikni tezda parlanib ketishiga asos bo'ladi. Yoz fasli o'ta murakkab bo'lib, yuqori harorat janubdan esuvchi garimsel o'simlik dunyosi uchun anchagina salbiy oqibatlarga olib keladi.

Bunda havo haroratining bunday o'zgarishi "Sho'rchi" meteostansiyasi bo'yicha yillik o'rtacha harorat 15-17.8, mutloq minimum harorat-22 va "max" harorat 19 darajada va yoz faslida harorat ba'zan 48-50⁰ ko'tarilib ketadi. Bu esa o'z navbatida suv banbalari va zaxiralaridan tug'ri va oqilona foydalanishni ta'zo etadi.

Bahor faslining salqin kunlari iliq kunlarga o'z o'rmini mart oyining birinchi o'n kunligida bo'shatib beradi. Issiq kunlar havo davomiyligi 184 kundan 227 kungacha davom etadi.


"Sho'rchi" meteostansiyasi bo'yicha oylardagi havo haroratining ko'rsatkichlari.

1-jadval

Meteostan siyasi	Oylar												yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
Sho'rchi	-5.4	3.6	7.8	10.0	19.0	29	36	34	30	20	18	12	17.8

**“Sho’rchi meteostansiyasi bo’yicha havo haroratining
oylardagi o’rtacha ko’rsatgichlari”**

1-grafik




“Sho’rchi meteostansiyasi bo’yicha havo haroratining
Mutloq “max” va “min” ko’rsatgichlari”

2-jadval

Meteostan siyasi	Mutloq Ko’rsat gich	Oylar												Yil lik
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
Sho’rchi	“max”	-9	-5	15	24	30	34	42	37	29	22	17	-8	19
	“min”	-22	-18	-14	-9	2	5	8	6	0	-6	-16	-22	-22

“Sho’rchi meteostansiyasi bo’yicha havo haroratining
Mutloq “max” va “min” ko’rsatgichlari”

2-grafik



Uzoq dashtlari bilan tutashgan ushbu hududda havoning va umuman namlik miqdori juda past darajada mavjud bo'lib, bu o'simlik hayot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vohaga esadigan shamol harakati asosan janubiy yo'nalishdan bo'lib u ba'zan "Afg'on" garimseli deb nomlangan issiq havo harorati bilan almashadi.

Ayniqsa harakat yoz faslining jaziramasiga to'g'ri keladi.

“Sho'rchi” meteostansiyasi bo'yicha Qutublardagi shamol harakatining ko'rsatgichlari.

3-jadval

Qutb yo'nalishi.	Takrorlanish %	Shamol tezligi
Sh	12	2,2
ShShQ	6	3,0
ShG'	47	6,2
J	2	1,2
JShK	8	2,4
JG'	4	2,6
ShQ	8	3,2
G'	13	3,4

Janubdan esib keladigan garemshel harakati va shamol tezligiga shuningdek quruq havo oqimiga Surxon suv omboridan ko'tarilgan nam havo ozroq bo'lsada qarshilik qilib bir oz mu'tadil iqlim namoyon etadi.

“Sho'rchi” meteostansiya ma'lumotlari bo'yicha va uning ma'lumotlari quyidagicha jadvalda berilgan.

4-jadval

oylar	Shamol tezligi m/sek	Qutb yo'nalishi							
		Sh	ShShQ	ShQ	JShK	J	JG'	G'	ShG'
Yanvar	5.4	1	2	22	58	3	2	7	0
Fevral	5.1	1	2	25	54	5	2	10	1
Mart	4.4	3	4	19	49	5	1	16	3

Davomi									
Aprel	3.2	4	8	18	32	8	4	19	7
May	2.1	4	10	9	10	11	12	29	10
Iyun	2.2	6	13	11	11	11	11	26	9
Iyul	2.4	7	9	10	9	9	12	31	13
Avgust	2.5	3	6	6	6	12	14	40	13
Sentyabr	2.1	3	6	10	11	14	5	39	12
Oktyabr	2.1	4	7	22	18	10	25	27	7
Noyabr	3.4	3	5	21	35	6	3	19	1
Dekabr	4.9	1	2	20	54	3	1	12	1
O'rt	3.2	5	4	11	29	8	6	23	6

Shamol yo'nalishining guli "Sho'rchi" meteostansiyasi asosida. 1 sm² m.

Yer yuzasining tuzilishi Bobotog' etaklari va Sho'rchi tekisliklarida eroziya jarayonlarining ayniqsa suv va shamol eroziyasining rivojlanishida katta salbiy natijalar beradi. Relyef o'zgarishi yer yuzasida issiqlik va namlikning taqsimlanishi, ob-havo, yog'ingarchiliklarning xususiyati va miqdoriga ham suv oqimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Eroziya jarayonlarining rivojlanishida va eroziya mahsulotlarining sho'rlanishida tog' qiyaliklarining shakli katta ahamiyatga egadir. Ular shakliga ko'ra to'g'ri qiyalikli yonbag'ir, qavariq, botiq va zinapoyasimon qiyalikli yonbag'irlarga bo'linadi.

H.M. Maqsudovning (2005) ma'lumotlariga ko'ra nishabligi 1-3⁰ gacha bo'lgan yonbag'irlarda asosan yemirilmagan yoki yuza qismi sust yemirilgan tuproqlar bo'lsa, qiyaligi 3-5⁰ yonbag'irlarda o'rtacha yemirilgan, 5-7⁰ va 7-10⁰ dan ham tik qiyaliklarda asosan kuchli yemirilgan sur tuproqlar uchraydi.

Cho'l mintaqasida yog'in miqdorining juda ozligi, iqlimning keskin kontinentalligi, o'simliklar qoplaminig kamligi asosan sur tusli qo'ng'ir, cho'l-qumli, taqir, taqirli va sho'rxok tuproqlarni paydo bo'lishiga olib keladi. Bu tuproqlar sur tuproqlardan genetikaviy tuproq qatlamlarining unchalik rivojlanmaganligi, yupqaligi strukturasisizligi, sho'ranganligi, chirindini kamligi

(0.2-0.7%) singdirish sig'iminining kichikligi (100 gr tuproqda 8-10 mg, ekv) singdirish kompleksining **Sa** va **Mg** bilan to'yinganligi bilan farq qiladi.

Och tusli sur tuproq dengiz sathidan 200-250m balandlikdan to 300-350m balandliklarda rivojlangan bo'lib, ularning asosiy maydonlari Bobotog' va Sho'rchi tumani xududining past tekisliklarida xyoss va xyossimon qumoqli jinlarda uchraydi. Oddiy sur tuproqlar dengiz sathidan 300-800m balandlikkacha bo'lgan tog' oldi tekisliklari, adirlar va past tog'lar tuprog'ida shakllangan. Chirindi miqdori yuqori qatlamlarda 1.5-2.0% ni tashkil etadi (H. Maqsudov., H. Nomozov). Eroziyaga uchragan lalmi va sug'oriladigan asl sur tuproqlarni yuqori qatlamlarda gumus miqdori o'rtacha 0.7-1.0% dan iborat bo'ladi.

O'simliklarning barcha turi tuproqlarning eroziyaga qarshi turish qobiliyatini oshiradi. Yog'in-sochin suvining ma'lum qismi o'simliklar tanasiga o'tadi, natijada tuproq yuzasida oqim paydo bo'lmaydi. Olib borilgan izlanishlarga qaraganda yog'in-sochin suvining madaniy o'simliklar 2.4% gacha daraxtlar esa 30% ushlab qolishi mumkin. Tog' etaklarida o'simliklar quyidagicha tartibda joylashgan:

-o'rmon daraxt o'simliklari;

-pichan o't-o'simliklari;

-mevali bog'lar va ko'chatzorlar (Maqsudov X.M., Odilov A.A 1998).

O'rmon fondini inventarizasiya qilish ishlari yerdan turib chamalab o'lchash-loyihalab hisoblab chiqish metodlari asosida amalga oshiriladi. Katta yoshdagi o'rmon ekinlari va o'tgan taftish davridagi daraxtlar ko'zdan kechirib chiqiladi.

Xo'jalik ko'rsatmasi va o'rmonlarni sun'iy ravishda qayta tiklash o'rmon xo'jaligi tadbirlari ish hajmini oldida turgan taftish dala o'rmon xo'jaligi va o'rmon uchastkalari ishchi xodimlari bilan kelishilgan holda olib borildi.

O'rmon ekinlari va o'rmon xo'jaligi tadbirlarini belgilashda ilmiy teshirish institutining hisob texnik kartasidan foydalanildi.

O'rmonlarning taksasiya qilish, aerofotosinimkasiz bajarish o'rmonni tahminan ko'z bilan chamalab o'lchash taksasiyasini ko'rsatkichlarini aniqlashda

korektirovka jadvalidan foydalanildi, tuzilgan jadval o'rmon tuzish ishlari korxonasidan Markaziy Osiy yerlariga tuzilgan.

Ko'rsatilgan jadvallarni tekshirish haqiqiy o'rmon tuzish ishlari tomonidan tekshirilmagan. Bu ishlarni bajarish 1982 yilga o'rmon tuzish ishlari vaqtida bajarildi. Ko'rsatkichlar shuni kursatdiki aniqlash zaxira o'rmon barpo qiluvchi xandon pista turlari daraxt zichligi $0.3 \pm 1.09 \div 11.6\%$, daraxt zichligi 0.6 ga va undan oshiq bo'lganda $\pm 9.7 \div 12\%$ Xandon pista daraxtining zahirasi qoida bo'yicha $10 \text{ m}^3/\text{ga}$ dan oshmaydi.

Sistematik xatolar zahirasi tuzildi.

-daraxt zichligi 0.3-0.5-1.0-11% bo'lganda;

-daraxt zichligi 0.6 va undan oshiq bo'lganda $+5.4 \div -0.6\%$.

Ishlab chiqarish zahirasi kiritildi, bonitet ko'rsatgich, o'rmon ekinlari holatiga baho beruvchi ko'rsatgich va o'rmonlarni bir turida tiklanishiga baho beruvchi ko'rsatgichi ko'ndalang kesim yuzasini xajm yuzasi jadvali, o'rmon turi sxemasi va o'rmon o'sish joylarining tiplari ilovada ko'rsatilgan.

Agroiqlimni rayonlashtirish, O'zbekiston Respublikasi xududi Bobotog' o'rmon xo'jaligi Turon poytaxtining tog'li va tog' etaklari yonbag'rida joylashgan. Iqlim bu yerlarda haroratni tez tushishi ko'tarilib ketishi, atmosferada namlikni yetarlilmasligi, namlikni parlanib ketishi, havoda namlikni pastligi va kuchli shamollari bilan ajralib turadi. Bahorning iliq kunlari issiq va quruq havo bilan almashadi va yoz oylarida, kuz oylarining o'rtalarigacha o'zoq davom etadi. Qishki ob-havo haroratini tez tushib ketishi va arktik rayonlardan sovuq havo oqimi kelishi haroratni tez sovub ketishiga sabab bo'ladi.

Iqlim ko'rsatgichlari.

5-jadval

Ko'rsatgich nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatgich	Vaqti
1. havo harorati.			
1.1. O'rtacha yillik.	harorat	14.5	
1.2. Absolyut maksimum	harorat	48	
1.3. Absolyut minimum	harorat	-25	
2. Yog'ingarchilik yillik soni	Mm	445	
3. O'sish davrini davomiyligi (vegetasion)	Kun	235	
4. Yuahor oyidagi oxirgi sovuqlik			15.03
5. Kuz oyidagi birinchi sovuqlik			25.10
6. Qor bilan qoplanishi			
6.1. quvvat	Sm	Doimiy emas	
6.2. paydo bo'lish vaqti			10.10
6.3. o'rmonda unib chiqish vaqti			15.02
7. yerning muzlash chuqurligi	Sm	5-15	
8. shamol yo'nalishi mavsum bo'yicha			
-qish	Rumb	Sharq	
-bahor	Rumb	J.Sharq	
-yoz	Rumb	Shim.G'arb	
-kuz	Rumb	J.G'arb	
9. shamollarni o'rtacha tezligi mavsum bo'yicha			
-qish	m/sek	2-5	
-bahor	m/sek	1-5	
-yoz	m/sek	3-5	
-kuz	m/sek	1-5	
10. Havo namligi.	%	50-60	

Iqlim keltirib chiqaradigan faktorlar daraxt va bo'talar o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

-o'rtacha oylik haroratni tez o'zgarishi va havoni quruqligi.

-shundan dalolat beradiki tuman iqlim qattiq o'zgaradi.

-kunlik haroratni o'zgarib turishi, bahorni kech kelishi va qurg'oqchilik davrida sug'orilmaydigan yer maydonlardagi ekilgan o'rmon ekinlarini yashab ketishi va daraxtlarni hosildorligini kamayib ketishiga olib keladi.

-Bahor-kuz oylari davrida yomg'ir selga aylanib ketishi yerdagi unumdor tuprog'ini yuvib ketadi.

-Quruq havo harorati yuqoriligi tuproqni qurishini ta'minlaydi va tuproq yumshashini tezligini (intensiv) oshiradi.

-Shimoliy-g'arbiy yo'nalishdagi "afg'on" kuchli shamoli bahor oylarida havo haroratini ko'tarib yuboradi (ba'zi paytlarda sovib ketish mumkin), xandon pista daraxti tugunchalariga jiddiy zarar yetkazadi.

Aniqlangan iqlim sharoiti shuni ko'rsatadiki tuman o'rmon xo'jaligida yuqori sifatli daraxtlarni yetishtirish ishlari bir sharoitda ya'ni, assortiment daraxt turlarini to'g'ri tanlash kerak. Tabiat injiqliklari omillariga chidamliyligi hisobga olganda qishgi ekinlarni yetishtirish texnikasi daraxt yetishtirish ishlari yuqori darajada davom etmoqda. Himoyalovchi hususiyatga ega bo'lgan o'rmon xo'jaligidagi daraxtzorlarning mahsuldorligi o'rmon xo'jaligidagi hodimlarning katta hizmatidir.

O'rmon xo'jaligi relyefi textonik-denudasion tiplari past bo'lishi va o'rta bo'yli tog'larga kiradi. O'rmon xo'jaligida joylashgan "Bobotog" Xrebeti, Pomir va Oloy tog' tizmasiga kiradigan Janubiy-G'arbiy Xrebeti davomidir.

"Bobotog" Xrebetining yo'nalishi shimoliy-sharqdan, janubiy janubiy-g'arbgacha, xrebetni baloand nuqtasi 2233.4m.

Xrebetning janubida qiyalik tik emas va umumiy o'rtacha qiyaliklargacha cho'zilgan, adirlarsiz 3-5⁰ gacha; sharqiy tik va qiyalikning umumiy nishabligi 18⁰. Qiyaliklar soylar bilan kesishgan yo'nalishda yoyilgan va turli yo'nalishlarda oqib kelgan.

G'arbiy qiyaliklar ostidan 11 km lik adir o'tgan, shimoliy qismi 28 km lik o'rmon xo'jaligining janubiy qismigacha adirlar yumshoq relyefidan iborat. Sharq qiyaliklarda nishablik baland bo'lganligi oqim tez va soyda uchragan narsalarni chetlarga uloqtirib tashlaydi. Soy qiyalik bo'lganligi sababli turli xilda o'simliklar

ildizi chiqib qolgan. Tuproq qatlami turli shaklga ega, quruq tog'li tumanlarda turli har xil tuproqlarga ega.

-och rangli bo'z tuproq.

-bo'z tuproq.

-to'q rangli bo'z tuproq.

-qo'ng'ir karbonatli.

-daryo bo'yi tuproqlari.

Och rangli bo'z tuproqlar. O'rmon xo'jalik xududini bir massivida, chuqurlikdagi yer osti sizot suvlari kam miqdori suvli va kam quyosh nuri ta'sirida o'simlik qoplami efemerlardan tashkil topgan. Mol boqish jadal bo'lgan joylarda yantoq o'simligi ustunlik qiladi. Tuproq miqdorida o'simlik qoldig'i va tarkibi kamligi bilan ajralib turadi. Tuproqning ustki qismida chirindi miqdori 1.5% dan oshmaydi. Bu tuproq quruq bo'lgani sababli o'rmon ko'paytirishga yaroqsiz.

Bo'z tuproqlar. Bu kabi tuproqlar keng tarqalgan va o'rmon xo'jaligi hududini yarmini egallagan.

Bu tuproqlar qiyalikda turli holatda joylashgan va 800 dan 1200 (1400 m) dan absolyut qiymatidan oshmaydi, shu bilan birga g'arbiy qiyaliklarda 1200 m chegarasidan chiqmaydi. Bu tuproqlarda o'simlik dunyosiga boy va keng tarqalgan. Asosan o'simlik dunyosi efemer va efemeroidlardan tashkil topgan. Bu tuproq zonalari pista daraxtzorlarida muayan tarqalgan, xandon pistadan tashqari, bodom, zarang daraxtlari shakllanishi qatnashadi. O'rmon tagi o'simliklari kurtin xarakterga ega va popuk bargli va olvom tog'li deb ko'rsatilgan.

Chirindi miqdori bu tuproqlarda aniq ko'rinadi va chirindi tarkibi 1.5-2.5% gacha. Bu kabi tuproqlar o'rmon xo'jaligini o'rmon barpo qilish fondini tashkil qiladi.

To'q rangli bo'z tuproqlar bo'z tuproq kabi keng tarqalmagan. G'arbiy va shimoliy qiyaliklarda 1200 m-1400 m dan 1500 m gacha joylashgan, sharqiy va janubiy qismlarida 1200 m (1400) dan dengiz sathidan 1800 m balandliklarda joylashgan.

Bu tuproqda o'simlik dunyosi efemir va boshqa turdagi o'simliklarda iborat. Yuqori qismidan tuproqlarni yoyilishi pistazorlar tarkibida zarafshon archasi ko'zga tashlanadi. Chirindi miqdori bu tuproqlarda 2-3% dan oshmaydi, ba'zida 4% li joylar ham uchrab turadi.

Qo'ng'ir karbonatli tuproqlar. Bu tuproqlar Xrebetning g'arbiy qismidan 1500 m va sharqiy qiyaliklarni 1700-1800 m balandligidan boshlab yoyilgan. Tuproq sharoiti yaxshi ta'minlangan va o'simlik dunyosi boy bo'lgani uchun unumdor.

Pastki qismidan boshlab tuproqlar pistazorga, archa daraxtlari bilan aralashib ketgan. 1700 m balandlikda buni teskarisi, faqat archazor boshlanadi. Butasimon yog'och o'simliklari archa, bodom, zarang, na'matak, shilvidoshlar, kizilniklardan iborat. Tuprog'i unumdor, chirindi miqdori 4% dan oshadi. Tuproq hosil bo'lishi joylashuvi tezligi jigarrang tuproqlar oqimi yig'ilishi (akkumlyasiya) qobiliyatiga ega, archazorlar zichligi (0.7 va undan yuqori) bo'lgan joylarda tipli tuproqlar uchraydi.

Daryo bo'yi tuproqlari. Bu tuproqlar barcha tuproq zonalarida tarqalgan, yer osti sizot suvlari bu yerda kuchli minerallasgan va shu bilan birga tuproq sho'rlangan. Bu yerlar kam kuchlangan yer deb belgilanadi. Bu tuproqlar o'rmon yaratishda butunligicha yaramaydi.

Bobotog' xrebeti gidrografik tarmoq rivojlanishi deb xarakterlanadi.

-soylarni birinchi joylashishi, bir-biriga parallel, keng yo'nalishda joylashgan.

-soylarni ikkinchi va uchinchi joylashishi, asosiy soylar oqib kelishi va qiyaliklar ustidan turli yo'nalishda yo'nalgan.

4. O'RMON DARAXTZORLARI KO'CHATLARINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI.

O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasiga qarashli o'rmon xo'jaliklarida har yili 40 mln dona atrofida har xil turdagi manzarali yaproq va nina bargli daraxt, buta ko'chatlari yetishtirilmoqda. Bu esa o'z navbatida respublikamizning xalq xo'jaligini barcha sohalarida zarur bo'lgan ko'chat bilan ta'minlashdir. Bu bilan yog'och mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj ham ta'minlanmoqda.

Ko'chatlar ko'chatxonalarida har xil usullarda urug' sepish, qalamcha va payvantaglar tayyorlash yo'llari bilan ko'paytirilmoqda. Lekin buning uchun maxsus ko'chatxonalar uchun yer maydonlarini to'g'ri tanlash taqozo etadi. Bu ishlarda o'rmon ekinzorlari ustasi, tuproqshunos, gidrolog va entomologlar qatnashishi kerak. Ko'chatzor uchun ajratilgan maydon kattaligi va **shakli** bo'yicha ko'chatxona mashtabida ko'rsatilgan ish xo'jalig to'g'ri kelishi, zararkunandalardan xoli, tuproq tarkibi ekishga mos, sug'orish shoxobchalariga yaqin aholi maskanlari va avtomobil yo'llariga yaqin bo'lishi kerak.

Sug'oriladigan sharoitda ko'chatxona maydonlarini takomillashtirishda asosiy diqqat e'tiborni sug'orish shaxobchalarining miqdoriga va yer maydonlarining relyefiga e'tibor berish zarar bo'ladi. Ko'chatzor uchun ajratilgan maydon tekis yoki unchalik katta bo'lmagan ($3-5^0$) qiyalikda bo'lishi kerak bo'ladi.

Bugungi yog'och mahsulotiga tanqislik sezila boshlagan vaqtda har xil turdagi yaproq bargli daraxt turlaridan uning ko'chatlarini yetishtirishni taqozo etadi. Buning uchun oldin tuproq tarkibi obdon tekshirib ko'rilgan yer maydoni maxsus texnika vositalari va agregatlar yordamida tayyorlab olinadi. Yer maydonidan har xil ortiqcha to'nkalar, shox-shabbalar va temir-tersaklardan yaxshilab tozalanadi. Yer maydoni 35-40 sm chuqurlikkacha haydaladi. Kelajakda nihol va ko'chatlarga o'z vaqtida sug'orish ishlarini olib borish uchun maxsus suv ariqlari tortiladi. Shuningdek ko'chatxona atrofida mavjud bo'lgan daraxtlarda entomologik monitoring (kuzatuv) o'tkaziladi.

Agar olinadigan mahsulot urug'idan yetishtirilib har tomonlama rivojlangan maqbul bo'lgan standart nihol va ko'chatlar olish uchun ularni tarbiyalash bo'limiga ko'chirib o'tqaziladi. Bundan maqsad ko'chatlarni yaxshi, kuchli ildiz olishiga va oziqlanish maydoni bema'lol bo'lib, erkin holda rivojlanishida sharoit yaratiladi.

Ushbu tarbiyalash bo'limi ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi bo'limda ko'chatlar turiga qarab 2 (ikki) yildan 5 (besh) yilgacha o'stiriladi. Tez va o'rtacha tez o'suvchi daraxt turlarining ko'chatlardan (teraklar, tollar, ipak akas, tikan daraxti, chinor, go'zal katalpa, chinor, mayda bargli qayrag'och va zarangni ko'pchilik turlari) birinchi bo'limdan fermer xo'jaliklariga, korxonalar va boshqa har xil tashkilotlarga daraxtzorlar, ixota daraxtzorlari, yog'och olish uchun maxsus daraxtzorlar va ko'kalamzor hududlar arpo etish uchun kelishilgan holda o'tkaziladi.

Ko'pchilik daraxt ko'chatlarini qayta ko'chirib ekish yaxshi natija bermasligini e'tiborga olib birinchi bo'limda o'stiriladi. Ya'ni ekilgan ko'chatlarni bir nechta qatorini kovlab olib, boshqa qatorlarini o'stirishga qoldiriladi va hokazo. Qator oralaridan unumli foydalanish maqsadida ular oralig'i haydab urug'dan yoki novdasidan yana ko'chat o'stirish uchun foydalaniladi.

Bir yillik ko'chat o'stirish bo'limida vegetasiya davrida ikkinchi va uchinchi yillari 8-10 marotabagacha sug'oriladi.

Tuproq sharoitiga qarab sug'orish me'yori 800 (sariq tuproq) 600 (botqoqli tuproq), 500-400 kub m/ga (shag'alli qumoq sariq tuproqlar) ni tashkil etadi.

Ko'chatlar yoppasiga va qisman alohida ajratilgan maydonlarda ekish usuli bilan barpo etiladi. Shundan so'ng ko'chatlarga agrotexnik tadbirlar o'tkazila boshlanadi.

4.1. XO'JALIKNI JOYLASHISHI VA MAYDOINI

O'zbekiston Respublikasi Bobotog' o'rmon xo'jaligi Surxondaryo viloyatining janubiy qismida joylashgan.

Pochta manzili: O'zbekiston respublikasi, Surxondaryo viloyati Uzun tumani
Uzun tumani markazi.

O'rmon xo'jaligi korxonasi tarkibi

6-jadval

O'rmon uchastkasi	Ma'muriy tumani	Umumiy maydon, ga	Xo'jalik idorasini joylashishi	Masofa km	
				Xo'jalik idorasigacha	Yaqin stansiyagacha
1 duxana	Uzun	12498	Oq machit	120	60
2 chagam	Uzun	15984	Chagan	80	40
3 fayzova	Uzun	20702	Arg'amchi	80	30
4 hazrat bobo	Uzun	26949	Qashqa	85	55
Jami		76133			

Tumanning ma'muriy chegarasi, hududiy bo'linmani joylashish tarkibi, idorani joylashish joy va transport o'llari o'rmon xo'jaligi xaritasi sxemasida ko'rsatilgan.

Bobotog' o'rmon xo'jaligi 1948 yili o'rmon xo'jaligi vazirligining 22.07.48 yilgi №381 qaroriga muvofiq tashkil topgan. Qayta tashkillashtirilgan o'rmon xo'jaligi Bobotog' o'rmon xo'jaligining dala hovlisida denov o'rmon xo'jaligiga asos qilib olindi. Bobotog' o'rmon xo'jaligi tarkibiga kiradigan 1 o'rmon tuzish ishlari 4 razryad aniqlikda 1932-1934 yilda olib borilgan. Navbatdagi o'rmon tuzish ishlari 1975-1982 yillarda oq qora aerofotosiyomka yordamida 1-3 razryad aniqligida 77276 ga va 77268 ga maydonda olib borildi. Kelgusi o'rmon tuzish ishlari 1992 yilda 1-3 razryadlarda tabiiy ko'payishi jami aniqligi ishlari qimmatbaho uchastkalarida olib borildi.

Kelgusida o'rmon tuzish ishlari materiallari hajmi to'liq holda saqlanib qolingan va o'rmon tuzish ishlari jarayonida foydalanilmoqda. O'tgan taftish davrida o'rmon xo'jaligi (tog'li qismi) maydonlarida keyingi o'zgarishlar kelib chiqdi.

O'rmon tuzish ishlari vaqtida o'rmon xo'jaligida Surxondaryo Qoratorv daryo bo'ylarida yer ajratish loyihasi bor edi. Uzun tumani hududidagi yer berish loyihasi mavjud emas. Yer berish loyihasi biriktirilmagan, yer resurslari inspektorlari ko'rsatilgan tumanlar hokimiyatining №401-3.10.2002 va № 894-25.09.2002 yildagi qarorlarni bajarmagan.. Xo'jalik hozirgi vaqtda yer ajratish ishlari bilan shug'ullanmayapti. O'rmon tuzish dala ishlari vaqtida Uzun tumani himoya zonasida (300 m) va Denov tumani qirg'oq bo'yi (50 m) aylanib ko'rildi.

4.2. KO'CHATZOR UCHUN YER MAYDONLARINI TAYYORLASH.

Mamalakatimizni barcha hududlarida, shahar va qishloqlarida, ishxonalar, o'quv maskanlari atrofida o'lgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bugungi kunda tez suratlarda amalga oshirilmoqda. Shunday obodonlashtirish ishlari amalga oshirilayotgan yer maydonlarida albatta yashil hududlar barpo etiladi. Ushbu yashil o'simliklar albatta qaysi bir o'rmon ko'chatxonalarda yetishtiriladi. Mahsulot olishda agrotexnik tadbirlar o'tkaziladi.

Ko'chatxonalarni yer maydonlarini tanlashda ilmiy yondashgan holda maydon tanlanadi. Uning joylashgan geografik o'rni o'rganib chiqiladi qaysi hududda joylashgan bo'lsa iqtisodiy tomonlari kelajakdagi samarasi hisoblab chiqiladi. Ko'chatxonalarni tanlashda shoshilinch ravishda birdaniga yer maydoni belgilanmaydi. Uning atrof muhit ekologiya bilan bog'liq tomonlari hisoblab chiqiladi, va shundan so'ng ekish ishlari boshlanadi.

Yirik doimiy ko'chatxonani o'z o'rnida har tomonlama talabga javob beradigan darajada tanlash, o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarish rejalarini yuqori saviyada bajarishda katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham ko'chatxonalar uchun yer maydonini to'g'ri tanlashda maxsus tekshirish ishlarini o'tkazish zarur bo'ladi. Bu ishlarda o'rmon ekinzorlari ustasi, tuproqshunos, gidrolog va entomolog kabi mutaxassislari qatnashishi kerak.

Ko'chatzor uchun ajratilgan maydon kattaligi va shakl bo'yicha ko'chatxona masshtabida ko'rsatilgan ish hajmiga to'g'ri kelishi, har xil kasallik va zararkunandalardan xoli, sug'orish shoxobchalariga yaqin, aholi yashash hududlariga va avtotransport shoxobchalariga ham yaqin bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sug'oriladigan sharoitda ko'chatxona maydonlarini takomillashtirishda asosiy diqqat e'tiborni sug'orish shoxobchalarining miqdoriga va yer maydonining relyefiga e'tibor berish zarur bo'ladi.

Ko'chatzor uchun ajratilgan maydon tekis yoki unchalik katta bo'lmagan (3-5⁰) qiyalikda bo'lishi kerak. Qumli sharoitda ko'chatzor uchun yer maydonlarni

tanlashda asosiy e'tiborni tuproq tarkibi va undagi namlikka qaratish zarur bo'ladi. Tog'li sharoitda ko'chatxonalar uchun yer maydonlarini tashlashda dengiz sathidan 1200 m dan 2000 metr masofagacha e'tibor qaratiladi. Katta hajmdagi ko'chatzor bog'lari 1.0-1.5 gektarni tashkil etadi. Keyin esa ushbu maydon rejalashtirilib tekislanadi, uning tuproq qtlamiga birinchi ishlov beriladi shuningdek kelgusida ko'chatlarni o'z vaqtida sug'orish uchun suv yo'llari, ariqlar tortiladi.

Shundan so'ng maxsus mutaxassislar tomonidan ko'chatzorlarda ishlarni to'g'ri tashkillashtirish uchun zarur bo'lgan dastur ko'chatzorlarni tashkiliy-xo'jalik rejalari tuziladi. Ushbu rejada hozirgi zamon fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyalari asosida ko'chatxonada ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri va aniq olib borish ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat: **1).** Yer maydonining bo'ylama va ko'ndalang ko'rinishda olingan surati va sxemasi; **2).** Tuproq-gidrologik tekshirishlari bo'yicha tuzilgan tuproq kartasi; **3).** Fitopatologik va entomologik tekshirish natijalari asosida tuzilgan karta; **4).** O't-o'lanlari ko'rsatilgan geobotanik karta; **5).** Sug'orish shoxobchalarini qurish bo'yicha meliorativ xujjatlar tashkil etiladi.

Ushbu rejaning birinchi bo'limida ko'chatzor to'g'risida umumiy ma'lumotlar, xo'jalik yerlarini yalpi tayyorlash asosan tekis taydonlarda, qiyaliklari 5⁰ dan oshmagan joylarda qo'llaniladi. Bu usulda yong'oq mevali bog'lar, qarag'ayzorlar va o'rmon urug'chilik bog'lari barpo etishda foydalaniladi. Yerlarni yalpi tayyorlash daraxt buta to'nkalaridan tozalashni, yerni haydashni, ko'klamgi boronalashni, ekish oldi kultivasiyasini va namlikni saqlab qolish jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yerni xaydashda tuproqni o'rtacha 15-30 sm chuqurlikkacha haydaladi, chuqur haydashda 30-40 sm, plantajli plugda 50 sm va undan chuqurroq olinadi. Yoz faslida yerlarni 2-3 marotaba kultivatorlar yordamida tekislanadi, ko'klamda esa 3B 3ST-1 yoki 3BTU-1.0 boronalar bilan yana qayta ishlanadi.

O'rmon xo'jaligida ko'pincha yerni chukur maydoncha, uzun chiziq (lenta) shaklida tayyorlanadi va shu tariqa umumiy maydonning 10 dan 50 foiziga to'g'ri keladi. Yerlarni qisman tayyorlashning yana bir usuli terrasa yoki zinapoya

shaklida tog' qiyaliklarini tayyorlashdir. Maydonchalar o'lchami, uzun chiziq shaklida yer tayyorlash tuproq namligiga, iqlim sharoitiga qarab belgilanadi. Agar iqlim sharoiti issiq bo'lsa, ularning o'lchamlari kattaroq bo'ladi. Maydoncha shaklida tayyorlangan yerlarning o'lchami 1-4 m² ba'zi hollarda 10 m² yetadi. Respublikamizning tog'li o'rmonlarida asosan 2x1; 2x2 m o'lchamlarda maydonchalar tayyorlaniladi. Tuproq 35-40 sm gacha yumshatiladi. So'ngra ko'chat ekiladi. Maydonchalarni PN-1-0.8 (T-74 traktorida) OPGN-1 (DT-75 K traktori) kabi moslamalar asosida ham tayyorlaniladi.

Har xil ko'chatlarni ekish uchun chuqurliklar tayyorlashda traktor bilan ishlaydigan chuqur qazuvchi agregatlar YaK-1, YaK-2 hamda ko'chma matorli agregat PMA-2 dan foydalaniladi.

4.3. ZARANG DARAXTIGA DENDROLOGIK TAVSIF BERISH

Zarang daraxt hamda buta o'simlikdir. Barglari butun, panjasimon bo'lakli yoki murakkab toq pat simon tuzilgan. Doira shaklida joylashadi. Ko'p turlarining guli ayrim jinsli, to'g'ri, besh a'zoli tipda. Erkak gullari rudiment (qisqarayotgan) tugunchali. Urg'ochi gullar changdonida spermasiz changchilar bo'ladi yoki bo'lmasligi mumkin. Ba'zi turlari bir uyli, boshqalari ikki uylidir. Gullari shingil yoki to'pgul xosil qiladi. Mevasi ikkita qanotchali bo'lib ajraladi. Urug'ida endosperma yo'q, urug'pallalari ko'pincha yig'ilgan holda bo'ladi.

Zarangning yog'ochi qalin pishiq, bir tekis rangli bo'ladi. Undan mebel, cholg'u asboblari yasashda, samolyotsozlikda foydalaniladi. Ayrim turlaridan shirin ta'mli shira olinadi, undan zarang qandi tayyorlanadi. Ko'p turi xushmanzara daraxt sifatida ekiladi. Turkumning ayrim turlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Turkiston zarangi (*Acer turkestanica* Rgl.) Bu zarang turi Tyan-Shan va Pomir-Oloyda 1600-2500 m balandliklardagi tog' yon bag'irlarida keng tarqalgan..Balandligi 10-15 metr, ko'p hollarda ko'p tanali daraxt (3-10 tanali) ko'rinishda o'sadi. Daraxt tanalari odatda qo'ng'ir qiyshiq rivojlangan. Tana po'stlog'i kulrang, silliq. Barglari yirik, oddiy 5-7 panjali. Zich yuqori tomoni to'q yashil, pastki qismi och yashil. Bir uyli o'simlik. Gullari to'plamsimon ko'rinishda sariq rangda. Aprel oyida barglari yozilishi bilan bir paytda gullaydi. Mevalari 2 qanotli, sentyabrda yetiladi. Qanotchalar yirik, 7 sm, ikki tomonga turli burchak asosida joylashgan. Urug'i yupqa, mayda ariqchali 0,9 sm diametrda. Urug'lari qishda birinchi qor yoki sovuqlardan so'ng butunlay to'kiladi. Keksa daraxtlarning ildiz tizimi asosan tuproqning yuqori qatlamlarida joylashgan bo'lib, ona daraxt 10-15 metr atrofiga tarqalgan. Faqat alohida ildizlar 2,0-2,5 metr chuqurlikkacha o'sgan bo'ladi. Issiqsevar 250 yilgacha yashaydi. Birinchi yillari sekin o'sadi va tuproq namligiga bog'liq bo'ladi. Masalan bu zarang 10-15 yilda bor yo'g'i bir metr ga o'sadi. 3,7 metr balandlikka 50 yilda, 7-8 metr balandlikka 100 yilda yetadi. Urug'idan ko'payadi.

Semenov zarangi (Acer Semenovii Rgl.) Ushbu zarang Markaziy Osiyoning dengiz sathidan 1000-2800 metr balandliklarda o'sadi, asosan tog' daryolari havzalarida tarqalgan. U asosan do'lana, qatrang'i, magaleb olchasi, olma, archa turlari bilan aralash o'sadi. U tog' meliorasiyasida jarliklar eroziyasiga uchragan yerlarni mustahkamlashda himoya o'rmonzorlari barpo etishda juda ko'p qo'llaniladi. 5 metr balandlikkacha o'suvchi kichik daraxt. Ba'zan ko'p tanali daraxt ko'rinishida ham o'sadi. ko'p yillik tanasi va shoxlari kulrang, bir yillik novdalari jigarrang. Barglari uch qirqimli, 3-4 tadan ko'p bo'lib o'sadi, zich yuqorisi yashilroq, pastki qismi ochiq rangda, chekkalari tishli. Gul to'plami zich, mayda, sariq gullar to'plamidan iborat. Barglarini yozib bo'lganidan so'ng gullaydi. Gullari asalga boy. Mevasi 2-qanotchali, uzunligi 3-4 sm, qanotlari to'g'ri burchak ostida joylashgan. Yosh mevalari olovrang-qizil, lekin yetilishi davomida sarg'ayadi. Qurg'oqchilikka chidamli. Sovuqqa bardoshli. Tuproqqa talabchan emas. Tez o'sadi va o'rmon meliorasiyasida va tog'li hududlarni ko'kalamzorlashtirish foydalanish uchun tavsiya etiladi.

O'tkir bargli zarang –(Acer platanoides L.), bo'yi 30 m ga yetadigan katta daraxt. Shox-shabbasi qalin, keng, yumaloq shaklda, barglari yirik panjali, besh bo'lakli, bo'laklarining uchi yumaloq-to'mtoq. Bu zarang barg yozishdan oldin –aprel oyida gullaydi, sariq-yashil, ayrim jinsli bo'ladi.

Mevasi sentyabr oyida yetiladi va uzoq vaqt daraxtda saqlanadi. Urug'i yirik, yassi tuzilgan, qanotchalari bor. 3 oy davomida stratifikasiya qilinadi, so'ng sepiladi. Tabiiy holda kuzda to'kilgan urug'lari erta bahorda unib chiqadi. O'tkir bargli zarang yosh vaqtida tez o'sadi, so'ng o'sishi sekinlashadi. Ildiz sistemasi o'q ildiz tipda bo'ladi. Asosiy ildizi yerga chuqur kirmaydi, biroq baquvvat yon ildizlari nihoyatda sertarmoq bo'ladi. Bu daraxt to'nkasidan ko'karadi, parxish yo'li bilan ko'payadi, u 150-200 yil yashaydi.

O'tkir bargli zarang MDH ning Yevropa qismidagi o'rmonlarda keng tarqalgan. MDH dan tashqari, u Skandinaviyada, O'rta Yevropada, O'rtayer dengizi, Bolqon yarim oroli rayonlarining janubida hamda Kichik Osiyoda tarqalgan. U yaproqli va aralash o'rmonlarda va boshqa daraxtlar bilan birga

o'sadi. U yetarli darajada sovuqqa chidamli. Bargining yirik shox-shabbasining qalin bo'lishi uning soyaga chidamliligini bildiradi. U yer tanlaydi, sho'rtob tuproqda o'sa olmaydi. Nam tuproqni hohlaydi, qurg'oqchilikka chidamsiz.

Zarangning yog'ochi qimmatbaho hisoblanadi. U tiniq sariq yoki qizg'ish rangda, og'ir, qattiq bo'ladi. Guli nektarli. Joylarni ko'kalamzorlashtirishda katta rol o'ynaydi, chunki uning qizil bargi va yumaloq shox-shabbasi unga chiroyli tus beradi. O'rmon meliorasiyasi ishlarida ham muhim o'rinni egallaydi. Ihota o'rmon qatorlariga ekish tavsiya qilinadi.

Dala zarangi (*Acer campestre* L.) kichikroq daraxt. Po'stlog'i bo'yicha yorilgan, qo'ng'ir kul rang. Shox-shabbasi keng, qalin. Novdalari sariq-jigar rang bo'lib, bo'yiga o'sib ketgan po'kakli o'siqlari bor. Barglari panjasimon besh bo'lakli bo'lib, uchi bir oz to'mtoq. Bu zarang barglarini yozib bo'lgandan keyin gullaydi. Gullari novdalar uchida joylashadi, sariq-yashil rangda bo'ladi. Mevasi sentyabrda yetiladi va uzoq vaqt daraxtda saqlanadi

Urug'i yassi, bahorda sepiladigan bo'lsa, uzoq vaqt stratifikasiya qilinadi. Kuzda sepilsa, stratifikasiya qilinmaydi. Zarang yosh vaqtida tez o'sadi, so'ng o'sishi sekinlashadi. U 100-120 yil yashaydi. To'nkasidan bachki novda chiqaradi. Parxish yo'li bilan ko'payadi. Ildizidan ham bachkilaydi.

Dala zarangi MDH da o'rmon-dasht zonalarida tarqalgan. Qrim va Kavkazda u ko'p uchraydi. U O'rta va Janubiy Yevropada, Bolqonda, Kichik Osiyoda va Eronda ham tarqalgan. Bu zarang issiqsevar, soyaga chidamli daraxt, shuning uchun shimoliy rayonlarga tarqala olmaydi. Unumdor yerlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka ham tuproqning bir oz sho'rtobligiga ham bardosh beradi.

Yog'ochining xossalari o'tkir bargli zarangnikiga o'xshaydi. Bundan tashqari, bu zarang havoning ifloslanishiga chidamli, shuning uchun joylarni ko'kalamzorlashtirishda ko'p ekiladi. U yashil to'siq uchun juda qo'l keladi. O'rmon meliorasiyasi ishlarida va ixota o'rmonzorla barpo etishda foydalanish tavsiya qilinadi.

Yavor zarangi (*Acer pseudoplatanus* L.) bo'yi 40 m, dametri 1 m ga yetadigan katta daraxt. Tanasi tik o'sadi, shox-shabbasi qalin, piramida-yumaloq

shaklda. Po'stlog'i qo'ng'ir-kul rang, bo'yiga yorilgan, u ajralib to'kilib turadi. Novdalari qo'ng'ir-kul rang, barglari yirik, besh bo'lakli bo'lib, bo'laklari o'tkir uchli, chuqur kesilgan. Barglarining yuz tomoni to'q yashil, orqa tomoni ko'kish yoki oqish, ayrim tuplarida qizg'ish rangda bo'ladi. Bu zarang barg yozib bo'lgandan so'ng aprel-may oylarida gullaydi. Gullari yig'ilib shingilcha hosil qiladi va osilib turadi. Ular sariq-yashil rangda, ayrim jinsli (changchili va soxta ikki jinsli), bir uyli, ba'zan ikki uyli, nektarli. Mevasi sentyabr oyida yetiladi, qanotchali bo'lib, qanotchalarida yong'oqchalar joylashadi. Urug'i bahorda sepilsa, stratifikasiya qilinishi kerak. Dala zarangi tez o'sadi, chuqur ildiz otadi, to'nkasidan ko'karadi. Parxish yo'li bilan ko'payadi va ayrim vaqtlarda ildizidan bachkilaydi.

Bu zarang Kavkazda, Karpat tog'i o'rmonlarida, Ukrainaning g'arbiy oblastlarida tarqalgan. Tog'li rayonlarda dengiz sathidan 1200-1500 m gacha balandda eman hamda yirik yaproqli daraxtlar bilan birga o'sadi va birinchi yarusni tashkil qiladi. Qisman soyaga chidamli, sovuqqa chidamsiz. Bu zarang Leningrad, Moskva va Voronejda ekiladi, ammo sovuqdan ancha zararlanadi.

Yog'ochi tiniq, oq-sariq rangda bo'lib, duradgorlik ishlarida foydalaniladi, undan cholg'u asboblari, miltiq qo'ndog'i yasaladi. Bu zarang juda chiroyli daraxt. U turli shaharlarda, parklarda ko'p ekiladi. Botanika bog'ida o'stiriladi. Joylarni ko'kalamzorlashtirish uchun va o'rmonchilik ishlarida keng foydalanish uchun tavsiya qilinadi.

Qandli zarang (*Acer sacharum March.*) ning bo'yi 40 m, diametri, 1,5 m ga yetadi. Po'stlog'i kul rang, barglari uch bo'lakli bo'lib, bo'yi 14 sm, tub tomoni o'roqsimon tuzilgan. Bo'laklari yashil, tuksiz. Guli qo'ng'iroq shaklda, bo'yi 5 mm, yashil sariq bo'lib, yig'ilib soyavonsimon to'pgul hosil qiladi. Mevasi qanotchali bo'lib, yong'oqchasi bilan birgalikda 4 sm keladi, tuksiz. Bu zarang urug'dan yaxshi ko'payadi. Ildiz sistemasi yer yuziga yaqin joylashadi. Soyasevar daraxt. Kuzda barglari tiniq sariq, pushti, qizil rangga kirganda juda chiroyli ko'rinadi. U 300 yil yashaydi.



2-rasm. Qandli zarang barglari.

Yog'ochi juda qattiq va pishiq bo'ladi. Undan shirin suyuqlik olinadi, uning tarkibida qandning miqdori 6 % ga yetadi. Bitta yirik daraxtdan o'rtacha 1 kg ,maksimal 3 kg qand olish mumkin. Buning uchun erta bahorda daraxtning tanasini teshib naycha o'rnatiladi va shirasi yig'ib olinadi. Xar-xil konfet ishlab chiqarishda undan foydalaniladi. Bu zarang Shimoliy Amerikaning sharqidagi o'rmonlarda asosan Sharqiy Kanadadan toki Djordjiya,Alabama va Missisipi shtatlarigacha bo'lgan xududlarda keng tarqalgan.

Zarangning yana bir qancha turlari **tatar zarangi (Acer tataricum L.)**, **shumtolbargli zarang (Acer negundo L.)**, **daryobo'yi zarangi (Acer ginnala Maxim.)** bo'lib, ular ko'kalamzorlashtirishda va o'rmon meliorasiyasi ishlarida hamda o'rmon xo'jaligining har xil tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

**Yaproq bargli daraxt ko'chatlarini nixolxona bo'limida yetishtirishning
texnologik kartasi.**

7-jadval

№	Bajariladigan ishlar tartibi.	Muddati	Traktorlar markasi.	Mashina agregotlar makasi.
1	O'g'itlarni berish yerni haydash.	XI-XII	DT-75	Ro-60
2	Organik mineral o'g'itlarni toshib sepish.	XI	T-16-M T-28X-4	PTU-4 (rto-4)
3	Yerlarni haydash va bir vaqtda baranalash.	II-III	DT-75	Pln-4-35 Bzts-1
4	Yerlarni yumshatish.	II-III	DT-75	MV-6
5	Yerlarni molalash.	III to'liq	DT-75	KRSII-28 KRX-4
6	Egatlarni tayyorlash va urug'larni sepish.	V-to'liq	T-16M (T-28X4)	KRSSh-28 KRX-4
7	Nixollarni unib chiqish orasini-1 kultuvasiya qilish	VI-to'liq	T-16M T-28X4	KRX-4
8	Qatorlar orasini 2-marta kultuvasiya qilish	VI-to'liq	T-16M	(KRX-4)
9	Uchunchi kultuvasiya	30VI-10VII	-	-
10	To'rtinchi kultuvasiya.	20VII-1VIII	-	-
11	Beshinchi kultuvasiya.	20VIII-1VII	-	-
12	Oltinchi kultuvasiya.	X-da	-	-
13	Sug'orish ishlari.	qo'l	kuchi yor.	damida
14	Birinchi ozuqa berish.	20III-20IV	T-16-m	RRSSh
15	Ikkinchi ozuqa berish.	30VII-1-III	-	-
16	Uchunchi ozuqa berish.	20VII-1-VIII	-	-
17	Xashorat va kasaliklarga qarshi kurash.	V-VII	T-28X4	OVx-14
18	Ko'chatlarni kovlash.	XI-XII	DT-75	VPI-2

**Yaproq bargli daraxt ko'chatlarini yetishtirish agrotexnikasi
parvarishlash bo'limida.**

8-jadval

№	Bajariladigan ishlar tartibi.	Bajarish muddati	Texnika markasi	Mashina markasi
1	Yer maydonini 40 sm haydash	Oktyabr-noyabr	DT-75, MTZ-80	P.P N-40
2	Ekiladigan ko'chatni tashlab ketish	Noyabr	T-16 m	Kamaz Gaz-53
3	Ko'chatlarni vaqtincha ko'mib qo'yish	Fevral	Qo'l kuchi	Qo'l-kuchi
4	O'g'itlarni shudgorga sepish	Oktyabr-dekabr	T-40m, T-28x4	PME-moslama
5	Yerni haydash va boronalash	Fevral-mart	DT-75 Magnum	PAK-4-35, BZTS-10
6	Molalash ishlari	Mart	DT-75	MV-6
7	Ko'chatlarni ekish	Mart-aprel	DT-75	SShN-3
8	Ariqlarni olish va sug'orish	Mart-aprel	MTZ-80	KRX-4 KRX-3.6
9	Qator oralarini kultuvasiya qilish	Mart-aprel	T-40m T-28m	KRX-4
10	Sug'orish ishlarini o'tqazish	May-avgust	Qo'l kuchi	Qo'l kuchi
11	Kimyoviy ishlov berish	May	T-28x4m	OVX-IV purkagich
12	Tuproqni chuqurlashtirish	Ko'chatlarni parvarishlash	Dt-75	Rn-60
13	Ko'chatlarni qazib olish	O'z-vaqtida	Dt-75 MTZ-80	VPI-20 qo'l kuchi

4.4. ZARANG DARAXTI KO'ChATLARINI YeTISH TIRISH

Tor bargli zarang urug'i sentyabr oyida pishib yetiladi va to'kila boshlaydi. Shuning uchun ushbu zarang urug'ini daraxtda pishishi bilan yig'ib olishga harakat qilish kerak. Urug' pishayotgan davrda urug' qanotchasi qo'ng'ir tusga kiradi. Urug' shodasi bog' qaychisida kesilib yoki qo'lda yulib olib to'planadi. Toza urug' 75% gacha chiqadi. 1000 dona 98-180 gramm keladi. Ushbu to'plangan urug'ni qopda yoki maxsus urug' to'plash xonasida qum bilan aralashtirilgan holda saqlanadi. Urug' 2 yilgacha ko'karish qobiliyatini yo'qotmaydi. Kuzda urug'ni yerga nam paydo bo'lishi bilan quruq holda ekish mumkin. Ko'klamda ekishda urug' 2-oy stratifikasiya qilinadi. Ushbu stratifikasiya yerto'ladadagi nam qumda yoki ariq ichidagi qumda bajariladi. Urug'dan ekishda har metrغا 10 grammdan 4-5 sm chuqurlikda ekiladi.

Yavor zarangini urug'i sentyabrda pishib yetiladi va butun qish bo'yi daraxtga osilib turadi. Ushbu daraxt urug'i oktyabr-noyabr oylarida yig'ishtirib olish zarur bo'ladi. Toza urug' 70-90% gacha chiqadi. 1000 dona urug' og'irligi 96-190 gramgacha keladi. Ushbu daraxt urug'i bir yilgacha o'zining ko'karish qobiliyatini o'zgartirmaydi. Urug'i ko'klamda ekishdan oldin 3 oyga stratifikasiya qilinadi. Kuzda esa urug'ni daraxtdan terib olingan zahotiyog ekish mumkin. Urug' egatning har metrغا 80 gramdan 4-5 sm chuqurlikkacha sepiladi.

Dala zarangini urug'i sentyabr oyida pishib yetiladi va qish bo'yi daraxtda osilib turadi. Urug'ini oktyabr-noyabr oylarida yig'ishtirib olinadi. Kuzda ekishda urug' yangi terib olingan holda ekiladi. Ko'klamda esa 4 oygacha stratifikasiya qilinadi daraxtdan toza urug' 75% gacha chiqadi. 100 dona urug'i 50-85 gramm keladi urug' ko'karish qobiliyatini 3 yilgacha saqlaydi. Urug' egatning har bir metrغا 8 gramda 4 sm chuqurlikda ekiladi.

Kumushrang bargli zarang. Urug'i may oyida pishib yetiladi va uni terib olish bilanoq ekish mumkin. Toza 75-80% chiqadi. 1000 dona urug' 30-35 gramm chiqadi bu urug'ni egatning har metrغا 8 gramda 4 smgacha chuqurlikkacha ekiladi urug' 8-10 kun ichida tezda unib chiqadi. (ba'zan 60% ko'karib chiqadi).

Shumtolbargli zarang. Daraxtning urug'i avgust-sentyabrda pishib yetiladi va butun qish bo'yi daraxtda qoladi uning urug'ini butun qish bo'yi to'plash mumkin. Toza urug' 75% chiqadi. 1000 dona urug' og'irligi 35-55 gramm chiqadi. 3 yilgacha ko'karish qobiliyatini yo'qotmaydi. Mayin, quruq qumda saqlanadi. Ushbu daraxt urug'i kuzda ekiladi. Kuzda quruq holida ham ekish mumkin ammo bir stratifikasiya qilinsa yoki 2-3 sutka iliq suvda ivitib ekilsa, yaxshi natija beradi. Urug' egatning har metriga 5-6 gramdan 4-5 sm chuqurlikda ekiladi.

Tatar (qora) zarangining urug'i avgust oyida pishadi va qish bo'yi daraxtda qoladi. Terib olingan urug' 2 yilgacha o'zining ko'karish qobiliyatini yo'qotmaydi. Urug' to'planib, stratifikasiyalanib kech kuzda ekiladi. Ko'klamda ham 4-5 oygacha oldi stratifikasiyalanib so'ngra ekiladi.

Urug'larda turg'unlik degan tushuncha mavjud. Bu nisbiy tushuncha bo'lib, urug'lardagi modda almashinuvi holatini susayishini va aholida hollarda genetik dastur hisobining to'xtashini aks ettiradi. Urug'lar va o'sib rivojlanish jarayoni to'xtaydi. Urug'larnin turg'unlik holati keng mahnoda ularning o'sishida to'xtashi, ma'lum bir miqdorda unuvchanligining pasayishi yoki ma'lum bir sharoitda yaratilganda unib chiqish qobiliyatini saqlab qolishi tushuniladi.

Bizga ma'lumki urug'larnin o'sishi 3 fazaga ajratiladi: bo'kish, emulsiya va differensiya. Urug'larning bo'kish fazasi suvni o'ziga singdirishi bilan bog'liq. Ularning tezligi esa urug'ning biologik hususiyatiga va haroratga bog'liq bo'ladi. Qalin qobiqqa ega bo'lgan urug'lar suvni ko'p qabul qiladi, yupqa qobiqlar suvni kam qabul qiladi.

Stimulyasiya fazasida urug'larda fiziologik biokimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lib, ularni o'sishga tayyorlashda o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu fazada zarodish obig'iga tashqi muhitning ta'siri katta ahamiyatga ega va zarurdir. Ular ta'sirida o'sish jarayoni boshlanadi.

Deffersial o'sish fazasi urug' qobig'inin yorilishi bilan belgilanadi. Natijada urug'larga suv va havoning kirishi sekinlashadi, zarodish tezda optimal suv va havo bilan ta'minlanadi. Fermentlar faolligi susayadi. Nafas olish jarani kuchayadi. Ozuqa moddalar parchalanib o'suvchi to'qimalar harakatga keladi.

Hujayralar bo'linishi ko'payib, ular bo'yicha o'sish kuchayadi va to'qimalarda differensiya boshlanadi.

Urug'larni o'sish davri davomiyligi ulardan tashqari tashqi muhit, urug'larni terish muddati va sharoiti, ularni saqlash davoiyligi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun o'rmon xo'jaliklarining ish tajribasida ularni aqlash davomida va undan keyin ekishga tayyorlanadi.

Urug'larni ekishga tayyorlashning fizik, kimyoviy, fiziologik usulari mavjud. Ularni amalga qo'llash esa belgilangan urug'lar turlaridagi turg'unlik shakliga bog'liq.

Chuqur turg'unlikda bo'ladigan daraxt va butalarning urug'larini fiziologik usulda tayyorlashning an'anaviy turi bu urug'larni stratifikasiyalashdi.

Stratifikasiyanin ma'nosi urug'larni qum yoki torf bilan aralashtirib, joylashtirib qishda maxsus inshootlarda $+1+5^0$ s haroratda tinim muddati o'tkaztirib tayyorlab borishdir. Uning muddai daraxt va buta turi urug'ining xususiyatiga bog'li holda 1-10 oygacha davom etadi.

Urug'larni ekishga tayyorlash muddatiga ekologik omillar, terib olish muddati, saqlash sharoiti va boshqalar ta'sir etadi.

4.5 TUPROQQA ISHLOV BERISH

Ko'pchilik o'rmon xo'jaliklarida ko'chatxonada tuproqqa ishlov berish daraxt va buta nihollarini o'stirish hamda yetishtirish muhim soha hisoblanadi.

Chunki tuproqlar har xil unumdorlikka ega. Unumdorlik esa o'z navbatida tuproqning kelib chiqishi, iqlimi, o'simliklari mikroorganizmlar va dehqonchilik madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Parvarish qilinadigan ko'chatlarning hayot sharoiti agrotexnik tadbirlar bilan tartibga solinadi. Tuproqqa ishlov berishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1) Tuproqning haydov qismining va uning strukturasi bog'liq, tuzilishining o'zgarish natijasida qulay namlik, havo, issiqlik, oziqlanish rejimini ta'minlash.

2) Tuproqning pastki qatlamlaridan ozuqa moddalar tortib olish hisobida ularni aylanishni kuchaytirish.

3) Kasalliklarga va zararkunandalarga duchor bo'lgan begona o'tlarni yo'qotish.

4) Tuproq va uning tarkibini suv va shamol erroziyasidan saqlash

5) Daraxt va buta urug'larini ekish uchun qulay sharoitlar yaratish.

6) Tuproq tarkibidagi o'simlik qoldiqlarini va har xil moddalarni o'zaro aralashtirib borish.

Tuproqqa ishlov berish asosan yer maydonlarini haydash boronalash, har xil begona ajriq o'tlardan tozalash, molalash va har xil texnikalar yordamida kultivatsiya ishlarini o'tkazishdan iboratdir. Agar kuz faslida yer maydonlarini tayyorlashga to'g'ri kelib qolsa tuproq juda quruq bo'lsa u holda yerni haydashdan oldin albatta sug'orish ishlarini olib borish zarur bo'ladi. Erta bahorda esa to'plangan namlikni saqlash maqsadida tuproqning yuqori qatlamiga boronalash ishlari olib boriladi, yig'ilgan tuzlar tuproqning yuqori qatlamiga ko'tarilishi kamayadi. Agar tuproq juda ham zichlashgan bo'lsa, yumshatgichlar yordamida 18-sm chuqurlikgacha yumshatib boronalash yoki chizellash kerak. Asosiy tuproqni tayyorlash uchun yerni kuzda, erta bahorda shudgorlanadi yoki

vaqtinchalik o'simliklarni ekish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yer maydonlarini og'darib haydash shudgorlash ko'chatlarni kovlab olinganidan so'ng bajariladi.

Yer plug va plug oldi moslamasi bilan 27-30 sm chuqurlikgacha haydaladi. Bunda kuzgi va qishgi yog'ingarchiliklarda yerda ko'proq nam yig'ilsa, kasalliklar va hasharotlar nobud bo'lib har xil begona o'tlarni ildizlari quriydi. Erta ko'klamda katta kesak bo'laklarini maydalash uchun ikki tomonlama boronalash kerak. Ko'chatlarni bir yillik o'stirish bo'limida vegetasiya davrida ikkinchi va uchinchi yillarda 8-10 marotaba sug'oriladi. Tuproq sharoitiga qarab sug'orish normasi 800 (sariq tuproq) 600 (botqoq tuproq), 500-400 mm shag'alli sariq tuproqdagi ozuqa moddalarni tashkil qiladi. Ikkinchi va o'stirish bo'limlarida sug'orish normalarini 5-6 marotabani tashkil qiladi. Qatorlar orasini kultivasiya qilish, ariqlardagi tuproqni yumshatish ishlarini 3-4 marotaba sug'orilgandan keyin amalga oshiriladi. Nixolli bo'limlardan sug'orishni may oyidan to avgustgacha xar-o'n besh yigirma kunda o'tkazish zarur, har-bir sug'orishdan ikki uch kun o'tgandan keyin qator oralari kultuvatorli traktor yordamida 15-20 sm chuqurlikda yumshatiladi. Ko'zgi tuproqni ag'darish o't o'lanlarni yuqotish uchun, ko'chatlarni kovlab olgandan so'ngra ishlov beriladi. Ko'zgi tuproqni ag'darish bu chim hoida boronalashdan iborat. Erta bahordan boronalash ishlari boshlanadi, bu esa o'z novbatida tuproqda kapilyar naylari hosil bo'lib, tuproqni yaxshilaydi va tuproqda namlikni saqlaydi. Yerni begona o'tlardan tozalab va namlikni yaxshi saqlash asosidagi yerni xaydash qora haydash deb nomlanadi. Qora tuproq ko'zda yerni chimga xaydash davri bo'lib o'tkaziladi. Erta bahorda boronalash u bu esa tuproq tarkibidagi namlikni bug'lanib ketishini oldini oladi. Butun yoz davomida tuproqqa kultuvasion ishlov beriladi, birinchi yerga ishlov berish besh yetti santimetr chuqurlikgacha keyin esa tuproqqa yanada chuqurroq va yozning oxiriga kelib 10-12 sm ba'zan 15 sm ishlov beriladi.

**Tog' sharoitlarida ko'chatxonalarda tuproqqa ishlov berishning
texnologik sxemasi.**

9-jadval

	Bajariladigan ishlar turlari.	Tuproqlar turi.	Q/X Mashinasi	Bajarish muddati oyda.
1	Maydoni tekislash ishlari.	DT-75M.	PA-3	III-IV
2	Yerni 60 sm chuqurlikda xaydash.	DT-75M.	PPN-40	IX-X
3	Yerga gerbesidlar sepish.	T-28-XUM	OVX-28	II-III
4	Yer maydonlarini 25-27 sm chuqurlikda xaydash.	DT-75M.	PLN-4-35	II-III
5	Tuproqni 8-12 sm chuqurlikka yumshatish.	DT-75M.	KRT-3	V
6	Urug' sepish oldidan boronalash va yerni yumshatish.	DT-75M.	4KU-4A 63TS-10	X
7	Urug' sepish egatlarini tayyorlash.	DT-75M.	4K4-4A	X

4.6. MINERAL VA ORGANIK O'G'ITLAR BERISH

O'simliklarni hayotiga berilgan o'g'itlar samaradorligi butun vegetasiya davrida ko'chatlarni yuqori darajadagi oziqlanish tizimiga bog'liq .O'g'itlar organik mineral, organomitlar va mikroboologik turlarga bo'linadi. Organik o'g'itlar go'ng, har-xil kompostlar yashil o'simliklar kiradi. Ular parchalanish jarayonida ozuqa elementlarini ajratib, ikki uch xatto besh yilgacha o'simliklarni ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi, bundan tashqari bu o'g'itlar tuproqqa har tomonlama ta'sir ko'rsatib, uni organik moddalar bilan boyitadi, fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilab mikroorganizmlar faoliyatini ko'chaytiradi, gaz almashuv jarayonini tezlashtiradi. Go'ngni berish davrida to'rt yil kamida ikki uch yil ko'mib qo'yib saqlangan bo'lish kerak, so'ngra foydalanish mumkin. Dalaga olib chiqilgandan so'ng qisqa vaqt ichida yerga berish va yer maydonini 10-15 sm chuqurlikda haydalishi shart, bir gektar maydonga ko'klamda 15-25 tonna go'ng beriladi. Ushbu meyordagi go'ng ikki uch yil davomida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mineral o'g'itlar azotli, fosforli, kaliyli va mikro o'g'itlardan iborat bo'ladi.

Mikro o'g'itlar asosan mikroelementlardan iborat, ular o'simliklarning o'sib rivojlanishiga ijobiy yordam ko'rsatadi. Tuproqdan ozuqa moddalarni navbatma-navbat keta boshlagan yer maydonlariga har-xil o'g'itlar bera boshlanadi. Natijada ko'chatlar tuproqdan o'ziga ,azot, fosfor, kaliy shuningdek kalsiy, magniy kabi mikro elemetlarni ola boshlaydi. Ko'chatzorga beriladigan o'g'itlar qo'yidagi guruxga bo'linadi: organik, mineral organomeneral va mikrobiologik. Tuproq organik o'g'itlardan go'ng tarkibi bo'yicha bu o'g'itlar to'liq hisoblanadi. Organik o'g'itlar yerga hazim bo'lishi o'simlik organizimi uchun ikki uch ba'zan 0,5%-azot, 0,25%-fosfor va 0,6%-kaliy moddalarni tashkil etadi. Og'ir tuproqli yer maydonlariga beriladigan navvoz miqdorini 30 tonna ga 3-4-yilda bir marotaba, yengil tuproqli maydonlarda 15-25 tonna ga 2-3-yilda bir marotaba ko'zda chim haydalgandan oldin yer maydonlariga solib boriladi, agar biror sabab bilan ko'zda ulgura olinmasa erta bahorda yerlarni haydash vaqtida yerga har-xil chirindilar, barg xazonlar har-xil mevalar qoldiqlaridan va boshqa chirindilardan solinadi. Yer

maydonlari atrofda ko'chatxonada tahlanishi eni uch metr balandliga 1,5-2 metr dan iborat bo'ladi. Kompost uzluksiz ravishda suv bilan namlanib boriladi. Kompost tarkibida 0,3-0,5%-azot, 0,2-0,3%-fosfor, va 0,3-0,6%-kaliy, azotli o'g'itlar asosiy ozuqa elementi hisoblanadi. Mikrobiologik o'g'itlar –metrogin, azotobakterin va bakterial o'g'itlar kiradi. Ko'chatzorda ko'chat yetishtirishdan oldin tuproqqa mikrobiologik o'g'itlar beriladi. Super fosfat 1 ga da yaproq barglilar uchun 500-700 kg aralashmani 80-100 kg superfosfat bilan berib boriladi

4.7. KO'CHATZORDA PARVARISHLASH ISHLARI

Ko'chatzordan sifatli ko'chat olishda asosiy tadbirlardan biri bu parvarishlash ishlaridir. Ko'chat yetishtirish jarayoniga qarab ko'chatzorlar o'rmonli, manzarali ko'chatchilik va mevalaridan iborat bo'ladi. Ko'chatzorlar ko'p hollarda 1-3-yillik nihollar va sun'iy o'rmonzorlar parpo etishda o'rmon ko'chatlarini yetishtirishda yuqoridagi tartibi keltirilgan ko'chatzorlarda o'z vaqtida parvarishlash ishlarini olib borish zarur bo'ladi. Ulardan asosiysi ko'chat ekilgan juyaklar orasida iloji boricha begona o'tlarni o'sib rivojlanishini oldini olish kerak bo'ladi. Ushbu begona o'tlarni yuqotish va tuproq ustki qismini yumshatish urug'larini unib chiqishida, ko'chatlarni o'sib rivojlanishiga sharoit yaratadi. Begona o'tlarni juyak ichidan o'z vaqtida yo'q qilish natijasida ko'chatlarga yoruqlik havo harorati va ozuqa elementlari to'liq yetib boradi. Ko'chatlarga suv berish vaqti va me'yor vegetasiya davridagi ob-havoga va tuproq xususiyatiga bog'liq holda bajariladi. Yaproq bargli daraxtlarda 8-9 marotabagacha, igna bargli daraxtlarni esa ko'proq miqdorida sug'oriladi. Ko'chatlarni erta ko'zgi ayozli sovuq xaroratdan zararlanmasligi uchun sog'orish ishlarini avgust oyining oxirida to'xtatilishi kerak. Agar mavjud ko'chatlar juyaklarda juda zich o'sib turgan bo'lsa, ularda siyraklashtirish ishlarini bajarish zarur. Ushbu ishlar ko'chatlar tuproq sharoitida uning unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu ishlar ko'chatni to'liq unib chiqanidan 15-20-kundan so'ng bajariladi, siyraklash ishlarini o'tkazishdan oldin sug'orish zarur chunki tuproq tarkibi xolos bo'ladi. Ya'ni yer qotib qolmaydi, unda bir metrda yaproq bargli daraxtlardan 40-50-dona, igna brgli daraxt ko'chatlaridan 100-110-donadan qoldiriladi. Begona o'tlardan tozalash va tuproqni yumshatib birinchi yil ko'chatlarni vegetasiya davrida 4-5-marotaba o'tkaziladi. Qator oralari traktor bilan 10-15 sm chuqurlikda kultuvasiya qilinadi. Kultuvasiya ishlari sug'orish ishlari o'tkazilgandan 2-4-kundan keyin bajariladi. Shuningdek juyaklar ustki qismi tuprog'i 3-5 sm chuqurlikda yumshatiladi, keyinchalik esa yumshatish ishlari ortib boradi. Bizning mamlakatimizda ko'pchilik tuproq tiplarida organik

moddalar kam, shuning uchun har uch yilda bir marotabadan 25-30 tonna miqdorida har gektarda go'ng yoki kompos beriladi.

5. IQTISODIY SAMARADORLIK

Bugun mamlakatimizning barcha sohalarida yuksak natijalarga erishish uchun izchil islohotlar olib borilmoqda. Xuddi shunday yutuqlar asosida ish olib borish o'rmon xo'jaligi ishchi xodimlari va muhandis texnik xodimlar zimmasiga ham yuklatilgan. Mamlakat o'rmon xo'jaliklarida bugungi kunda ham yog'ochbop ham manzarali ko'chat yetishtirishga kirishildi.

Bizning ishimizda tog' etaklarida joylashgan o'rmon xo'jaligi ko'chatxonasida ko'chat yetishtirishning texnologik kartasi asosida 0.40x0.70 m sxemada 1 ga ko'chat yetishtirilib, barcha agrotexnik tadbirlar olib borildi. Buning natijasidagi sarf xarajatlar 11.575.000 so'mni tashkil etadi. Ushbu sxemada joylashtirilib ekilgan manzarali zarang ko'chatining miqdori 35750 donadan iborat bo'ladi. Shundan ob-havo va namlikni kamchiligidan 85 % ko'chatlar tutib ketsa, u holda tutib ketgan zarang ko'chatlarining soni 30387 donani tashkil etadi. Agar bir dona zarang ko'chatini narxini 2700 so'm deb baholasak u holda $30387 \times 2700 = 82044900$ so'mni tashkil etadi, u holda ko'chat yetishtirishdan ko'zlangan daromad $82044900 - 1157500 = 70469900$ so'mni tashkil etadi.

Iqtisodiy samaradorligi.

10-jadval

	Ko'rsatkichlar.	O'lchov birlik	Umumiy summa
1	Ko'chat yetishtirishga barcha sarf xarajat.	So'm.	11.575.000
	Jami.	So'm.	11.575.000
2	0.50x0.70 sxemada ko'chat yetishtirish	Dona	35.750
3	Tutib ketgan ko'chatlarning soni (85).%	Dona	30.387
4	Bir dona ko'chat narxi.	So'm.	2700
5	Tutib ketgan ko'chatlarning umumiy narxi	So'm	82.044.900
6	Shunda 1 ga don ko'zlangan daromat $82.044.900 - 11.575.000 = 70.469.900$ so'm		

6. JAHON MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlarini, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida.

Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararining darajasi va ko'lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zahiralari yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Shu borada 2006 yilda tashkil etilgan «Mikrokreditbank» ning faoliyati xususida alohida to'xtalish joiz. Mamlakatimiz hududlarida 78 ta filiali va 270 dan ziyod minibanki faoliyat ko'rsatayotgan mazkur bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ini kreditlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2007–2008 yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investisiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi.

Umuman, 2009 yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investisiyalarni hisobga olganda, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi kamida 25 foizini tashkil etadi.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni

chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiladigan ta'sirini hisobga olgan holda, qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamli loyihalar bugun amalga oshirilmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni yengish, hych shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo mas'uliyatimizni teran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi.

2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish – 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi – 10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foiz o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xom-ashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi.

2008 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSh dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko'paydi.

2009 yilni oldigan bo'lsak, o'rtacha ish haqi miqdorini byudjet sohasida – va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham – 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda. Inflyasiyaning o'sish ko'rsatkichini 7 – 9 foiz darajasida saqlab turish mo'ljallanmoqda.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investisiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSh dollari miqdorida investisiya jalb etildi. Bu 2007 yil bilan

taqqoslaganda, 28,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investisiyalar hajmi 23 foizni tashkil etadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investisiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgan e'tiborga sazovordir. 2008 yilda 1 milliard 700 million AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investisiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p demakdir. Eng muhimi, xorijiy investisiyalarning 74 foizini to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar tashkil etdi. Jahon inqirozi davom etayotganiga qaramasdan, 2009 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investisiyalar hajmi 1 milliard 800 million dollarga ko'payadi, buning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri investisiyalardir.

2008 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi.

Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008 yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 trillion so'm, jumladan, paxta tayyorlashga – 800 milliard so'm, g'alla yetishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009 yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so'm yo'naltiriladi.

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz – har bir loyihani qisqa muddatlarda barcha manfaatdor tuzilmalar, birinchi navbatda, xorijiy investorlar bilan birgalikda batafsil ko'rib chiqish, ular bo'yicha kelishuvlarni oxiriga yetkazish va 2009 – 2014 yillarga belgilangan ushbu strategik muhim dasturning qabul qilinishini tezlashtirishdir.

Yuqorida zikr etilgan vazifalarni inobatga olgan holda, 2009 yilgi iqtisodiy dasturimizning ikkinchi eng muhim ustuvor yo'nalishi – boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikasiya qilish jarayonlarini davom ettirishdir.

Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxonada rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak.

